

MAKTABDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI MUSTAQIL VA IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH METODIKASI

Yusupova Dilfuza Xasanovna

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani 36-sonli mакtabning
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13358005>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish metodikasi borasida ma'lumotlar keltirilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yanada yuksaltirish borasida fikrlashini kengaytirish ko'zda tutuylgan.

Kalit so'zlar: Mustaqil ish, Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish, aqliy faoliyat, mustaqil fikr yuritish, ongli amaliy faoliyat.

METHODOLOGY OF TEACHING PRIMARY CLASS STUDENTS TO INDEPENDENT AND CREATIVE THINKING AT SCHOOL

Abstract. This article provides information on the methodology of teaching primary school students to think independently and creatively. It is intended to expand the thinking of elementary school students in order to improve them further.

Key words: Independent work, Development of creativity, mental activity, independent thinking, conscious practical activity.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОМУ И ТВОРЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ В ШКОЛЕ

Аннотация. В данной статье представлена информация о методике обучения учащихся начальных классов самостоятельному и творческому мышлению. Он призван расширить мышление учащихся начальных классов с целью его дальнейшего совершенствования.

Ключевые слова: Самостоятельная работа, Развитие творческих способностей, мыслительная деятельность, самостоятельное мышление, осознанная практическая деятельность.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi usullardan yana biri - mustaqil ish metodidir. Nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki umuman ta'lim sohasida keng qo'llaniladigan o'quvchilarining mustaqil ishlari ta'lim samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida doimiy ravishda tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan. Metodist olimlar mustaqil ishlardan dars jarayonida keng foydalanishni doimo yoqlab chiqqanlar. Chunki o'quvchilarining bilimlarni egallash va mustaqil fikrlashga o'rgatish, avvalambor, mustaqil ishlarni bajarish, oldida turgan muammo va masalalarning yechimini topish jarayonida shakllanadi. Shunday ekan, o'quvchilarining mustaqil ishlari nima degan savolga to'xtalib o'tmoq joiz. Unga turlicha javob bergenlar. Jumladan, ba'zi olimlar mustaqil ishlar deganda o'qituvchining bevosita yordamisiz, ammo uning nazorati ostida bajariladigan vazifalarni tushunishsa, boshqalari o'quvchilardan faol aqliy faoliyatni, tashabbuskorlikni, avval olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashni talab qiladigan ishlar deb biliishadi.

Bizningcha, mustaqil ishlar o'quvchilarining aqliy imkoniyatlarini namoyon qilishga imkon beradigan, o'qituvchining bilvosita va bevosita ishtirokida, ammo bevosita yordamisiz nazariy-

amaliy materiallar ustida bajariladigan vazifalar bo‘lib, o‘quvchilarning nafaqat bilim darajalarini, balki ularning o‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay bilishlarini, mustaqil va mantiqiy fikrlash darajalarini aniqlash va shakllantirish imkoniyatini beradigan ongli amaliy faoliyatdir.

Mustaqil ishlar tasnifiga oid bir qancha qarashlar mavjud. Metodist olimlar guruhlarga ajratishda mustaqil ishlarning u yoki bu jihatlariga e’tibor qaratganlar.

Mustaqil ish turlarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy fikrlashga o‘rgatishdagi o‘rni:

Barcha o‘quv predmetlarida bo‘lgani kabi boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ham o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda mustaqil ishlar muhim o‘rin tutadi. Ular quyidagi xususiyatlariga ko‘ra xarakterlanadi:

- mustaqil ishlarda bajarish so‘ralgan shartlar o‘quvchilardan izlanuvchanlikni talab qilishi;
- o‘quvchilarni mustaqil holda hukm, xulosa va umumlashmalar chiqarishga yo‘naltirishi;
- mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarda yangi bilimlarni egallashga ehtiyoj tug‘ilishi.

Reproduktiv mustaqil ishlar. Reproduktiv mustaqil ishlar o‘quvchilarning avval olgan bilimlarini amalda qo‘llashni nazarda tutadi. Bunday mustaqil ishlarga namuna asosidagi mustaqil ishlar, sharhlab yozish, grammatik topshiriqli diktantlar kiradi. Bu xildagi mashqlar o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritish jarayoniga qisman ta’sir ko‘rsatadi va u ko‘pincha darslik mashqlari asosida o‘tkaziladi. Quyida darslikdan tashqari bo‘lgan namuna asosidagi mustaqil ishlarning ayrim variantlarini keltiramiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijodiy faoliyatini rivojlantirishda interfaol metodlar va o‘yinlardan foydalanish

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda evristik va muammoli ta’limdan tashqari bilishga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan ta’lim metodlaridan va o‘yindan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Boshlang‘ich ta’limda ishbop, rolli, syujetli o‘yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, ilmiy-ijodiy izlanishlarga yo‘llaydigan, bilishga oid ilmiy faoliyatni tashkil etish shakl va metodlaridan foydalanish o‘z samarasini berdi. Bu borada ijodiy faoliyatni rivojlantirish darslariga dialog-darslar munozara, bahs, suhbatlar, fantaziya, izlanish darslari, muammolar qo‘yish va ularni yechish darslari; ishtirokchilik darslari, modellasshtirish, badiiy texnik ijodkorlik, ijod qilish, kichik kashfiyotlar yaratish, insholar yozish, solnomalar tuzish, ishbop o‘yinlardan, innovatsion metodlardan foydalanish kabilar eng samarali bo‘ldi. ta’lim jarayonida dars shakllarining o‘yin usullari sifatida o‘qitishning ma’lum bir paytida o‘tkaziladi.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi kattalarning hatti-harakatini taqlid qilishga qiziqadi. Bunda ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan ishbop o‘yinlardan foydalanish kata ahamiyat kasb etadi. Bolalarga mo’ljallangan ishbop o‘yinlar takrorlash, mustahkamlash, o’tilganlarning qay darajada o‘rganilganligini (diktantlar, musobaqalar, krossvordlar, sirtqi sayohatlar rolli o‘yinlar, dramatik sahnalar tarzida) aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Ishbop o‘yinlarni hayotiy vazifalarni imitatsiya va modellasshtirish asosida tashkil etish samarali natijalarga olib keladi. Bunday o‘yinlar faqat bilishga oid bo‘lmay, dunyoqarashni kengaytirish, hamda hissiy ta’sir etishi bilan ham xarakterlidir.

Masalan, boshlang'ich ta'limda "Nima uchun?", «T-chizma», «FSMU», «Tarmoq (Klaster)», "Ikki qismlik kundalik" kabi innovatsion metodlardan foydalanganda o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga bevosita yordam beradi.

REFERENCES

1. T.G'afforova "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" Toshkent, "Tafakkur", 2011
2. Shadrikov, V.D. Qobiliyatlarning rivojlanishi // Boshlang'ich maktab. -№5
3. Xodjaboev A. Xusanov L. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. T.: Fan va texnologiyalar, 2007.